

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT ISHLARI
VAZIRLIGI**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA INSTITUTI

MATRASULOV SIROJBEK

**“MUSTAQILLIKDAN KEYIN MAMLAKATIMIZDA BOKS TARIXI
VA UNING RIVOJLANISHI”**

Ta’lim yo‘nalishi: 5610500 “Sport” (boks)

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ish ko‘rib chiqildi va himoyaga
taqdim etildi. «Boks, qilichbozlik va
taekvondo nazariyasi va uslubiyoti»
kafedrası mudiri.
p.f.n., dotsent Abdurasulova G.B.

Ilmiy rahbar: Rajabov G‘Q.

«_____» _____ 2015 y

TOSHKENT – 2015 y.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I.BOB. ADABIYOTLAR TAHLILI.....	6
1.1. Boks sport turi sifatida paydo bo‘lishi va rivojlanishi	6
1.2. O‘zbekistonga boksning kirib kelishi va rivojlanish boskichlari.....	10
1.3. Mustaqillik yillarida o‘zbekistonda bokschilarini yutuqlari.....	16
II. TADQIQOT MAQSADI, VAZIFALARI, USLUBLARI VA BOB. UNI TASHKIL ETISH.....	24
2.1. Tadqiqot maqsadi va vazifalari.....	24
2.2. Tadqiqot uslublari.....	24
2.2.1. Ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish.....	24
2.2.2. Pedagogi kuzatuv va videokuzatuv.....	25
2.2.3. Ekspert baholash uslubi.....	25
2.2.4. Matematik statistika metodi.....	26
III.BOB. TADQIQOT NATIJALARI VA ULARNI QIYOSIY TAHLILI.....	27
3.1. O‘zbekiston bokschilarini mustqillikdan keyingi Olimpiyada va Osiyo o‘yinlaridagi ishtiroki taxlili.....	27
3.2. Olimpiyada va Osiyo o‘yinlarida O‘zbek bokschilarini texnik- taktik harakatlari ko‘rsatkichlari taxlili.....	35
Xulosalar.....	42
Amaliy tavsiyalar.....	44
Adabiyotlar ro‘yhati.....	45

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov istiqbolga erishgan kunlardan boshlab jismoniy tarbiya va sportni integratsion soha sifatida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari doirasida ravnaq topishiga rahnamolik qilib kelmoqda.

Prezidentimizning "O'zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini tuzish to'g'risida"gi Farmoni (24.10.2002), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonda boksni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash jamg'armasini tashkil etish" to'g'risidagi (01.06.1999) Qarorining qabul qilinganligi va hozirgi vaqtda hayotga izchillik bilan tadbiq etilayotganligi yuqoridagi fikrlarimiz dalilidir.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, milliy davlatchilik va madaniyat tarixini ilmiy o'rganishning yangi davr boshlandi. O'zbekiston tarixini ko'plab unutilgan sahifalarini haqqoniy o'rganish, xalqimizning tarixiy hayot tarzini, milliy xususiyatlari va qadriyatlarini yoritishda yangi imkoniyatlar paydo bo'ldi.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridayoq iqtisodiy, siyosiy, madaniy jarayonlar bo'yicha jiddiy islohotlarni o'tkazish jismoniy tarbiya va sport sohasida tarixiy ahamiyat kasb etuvchi yangi yo'nalishlar yuzaga keldi. Aholining salomatligini yaxshilash, o'quvchi yoshlar va talabalarning jismoniy barkamolligini tarbiyalash, iqtidorli sportchilarning mahoratini davr talablari hamda xalqaro andozalar asosida takomillashtirib borish, shuningdek mehnatkash omma, ziyolilarning ish qobiliyatlarini va mehnat unumdorligini oshirish, eng muhimi esa, sog'lom turmush tarzi orqali umrni uzaytirishga, sog'lom avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor kuchaydi.

Bu yo'lda Respublika Prezidenti I. Karimovning hissasi g'oyat yuksakdir. "O'zining salomatligi haqida shaxsan g'amxo'rlik qilib borish madaniyatini yoshlikdan, maktab, mahalla, sog'liqni saqlash tizimi, jismoniy tarbiya va sportning ko'magida singdirish kerak", - degan o'ta chuqur mazmunli mantiqiy da'vati e'tiborga molikdir.

Respublika sport tashkilotlari va uyushmalarining tashabbusi bilan sobiq Ittifoq respublikalar orasida birinchilardan bo'lib "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida" 1992 yil yanvar'da qonun qabul qilinib, 2000 yil mayda qayta ishlab chiqildi va Oliy Majlisda yangi tahrirda qayta qabul qilindi.

Mustaqillik yillarida boks nafaqat o'z mavqeini mustahkamladi, balki butun dunyoga o'zbek boks maktabi mavjudligini isbotladi hamda namoyon etdi. O'zbek bokschilarining yirik xalqaro musobaqalar va Olimpiya o'yinlarida erishib kelayotgan yutuqlari fikrimiz dalilidir. Masalan Sidneyda (Avstraliya) o'tkazilgan XXVII Olimpiya o'yinlarida M.Abdullaev oltin medal sohibi bo'ldi, shuningdek, K.To'laganov, R.Saidov, O'.Xaydarov, S.Mixaylov, B.Sultonov, A.Ataevlar Olimpiada o'yinlarida sovrinli o'rinlarga sazovor bo'ldilar.

O'zbek bokschilarining erishgan yuksak o'rinlarini saqlab qolish uchun boks mashg'ulotlariga ko'p sonli iqtidorli yoshlarni jalb qilish va ularning tayyorgarligini ilmiy asoslangan reja asosida o'tkazish zarur.

YUqori malakali bokschilarning musobaqa faoliyatidagi texnik va taktik harakatlarini o'rganish orqali ularni nufuzli musoboqalardagi texnik va taktik harakatlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan mashqlar orqali malakali bokschilarni etishtirishning nazariy va amaliy asoslarini yaratish barcha davirlarda dolzarb muammolar sirksiga kiragan va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi.

Ishning maqsadi: Mustaqillikdan keyin mamlakatimiz bokschilarini xalqaro musobaqalardagi yutiq va kamchiliklarini tahlil qilish.

Tadqiqotning maqsadiga erishish uchun quyidagi vazifalarni echish talab qilindi:

1. Mustaqillikdan keyin mamlakatimiz bokschilarini xalqaro musobaqalardagi ishtiroklarini tahlil qilish;

2. Mustaqillikdan keyin mamlakatimiz bokschilarini xalqaro musobaqalarda yo'l qo'yilgan texnik xatolarini o'rganish va ularni bartaraf qilishni samarali yo'llarini taklif qilish.

Qo'yilgan vazifalarni echish uchun tadqiqotning quyidagi usullari qo'llanildi:

Ilmiy-metodik adabiyotlar tahlil, pedagogi kuzatuv va videokuzatuv, ekspert baholash uslubi va matematik-statistik xisoblash uslublaridan foydalanildi.

I.BOB. ADABIYOTLAR TAHLILI

1.1. Boks sport turi sifatida paydo bo'lishi va rivojlanishi

Adabiy yodgorliklar, rasmlar va ilmiy-uslubiy adabiyotlarda keltirilgan manbalarda qo'l jangi sport yakkakurashi sifatida jamiyat rivojlanishining ilk davrlarida paydo bo'lgan bo'lib, ko'pgina xalqlar o'rtasida turli xil ko'rinishlarda tarqalgan edi. Aljir janubida topilgan qoya toshlardagi rasmlar Afrika xalqlarida boks mavjud bo'lganligi to'g'risida guvohlik beradi I.P.Degtyarev, R.D.Xalmuxamedov.

Fir'avnlr sag'analari devorlarida aks ettirilgan qo'l jangi lavhalari shuni tasdiqlaydiki, ushbu yakkakurash turi qadimgi Misrda ham majud bo'lgan.

Bizgacha Krit-Miken madaniyati davrining qo'l jangi tasvirlari etib kelgan.

Qo'l jangi ayniqsa Qadimiy Gretsiyada (YUnonistonda) keng tarqalgan edi. 23-chi Olimpiadadan (e.a. 688 y.) boshlab uning Olimpiya o'yinlari dasturiga kiritilgani fikrimiz dalilidir.

Adabiy yodgorliklar, rasmlar Qadimiy Gretsiyada qo'l jangini olib borish qoidalari, jangchilarni mashq qildirish uslublari to'g'risida etarlicha ma'lumot beradi. Jang olib borish uchun jangchilarning mushtlari nam teridan tayyorlangan yumshoq tasmalar bilan o'ralgan. Ular hozirgi zamonaviy bintlar singari qo'lni jarohatlardan saqlagan. Musht bilan kurashuvchi jangchilar tik turgan holda jang olib borganlar. Ulardan asosan tezkorlik va chaqqonlik talab qilingan.

Mushtda jang qilishning sport turi sifatida paydo bo'lishi qadimgi asrlarga borib taqaladi. Eramizdan avvalgi qirqinchi asrga mansub Misr ierogliflari juda oddiy qo'lqoplarda teridan tayyorlangan bitlarda mushtda jang olib borayotgan jangchilarni tasvirlaydi. Bog'dod atrofida olib borilgan qazilmalarda mushtda jang qilish tasviri tushirilgan plitalar ko'p topilgan.

Minos labirintlarida olib borilgani qazilma ishlarining ko'rsatishicha, mushtda jang qilish grek davlati paydo bo'lgunga qadar egey madaniyati gullab yashnagan davrda tanish bo'lgan. Saqlanib qolgan rivoyatlardan aniqlanishicha, mushtda jang qilish SHarqda ham, ayniqsa ioniyalar orasida ham mashhur bo'lgan. Qadimgi Gretsiyada o'tkazilgan jang to'g'risidagi birinchi yozma ma'lumotlar

ushbu musobaqa turining Tomer tomonidan ta'riflangan misralari orqali bizgacha etib kelgan.

Greklar juftliklarni vazn toifasiga qarab emas, balki qur'a tashlash yo'li orqali ajratganlar. Uchrashuv vaqti cheklanmagan, u raqiblardan biri jangni davom ettirishga holi bo'lmagunga qadar davom etgan. Hakamlar (gellanodiklar) 40 yoshdan kichik bo'lmagan shaxslar orasidan tanlab olingan va ular jang olib borish texnikasini hamda musobaqa shartlarini yaxshi bilishlari lozim bo'lgan. Hamma mushtlashish jangi rasmlarida gellanodik uchi shoxlab ketgan tok novdasi bilan tasvirlangan. U ushbu novdani jangchilarga tekkizib, ularning harakatlariga aralashgan.

Sportchilarni o'rgatish va mashq qildirish alohida maktablarda – palestralarda mutaxassis rahbarligida amalga oshirilgan. Palestra – tomi yo'q yopiq kolonnada bo'lib, uning ichkarisida mashqlar uchun zal mavjud bo'lgan. Palestradagi pol tuproqdan bo'lgan. Zal atrofida tahorat qilish, dam olish, moy va qum bilan surtinish, qurbonlik qilish uchun kichik yopiq xonalar va h.k. joylashgan.

Jangchilar mashg'ulotlarda quloqchinli niqob bilan boshlarini himoya qilganlar. Bu niqob yumshoq teridan tayyorlanganligi ehtimoldan holi emas. Mashg'ulotlarda zamonaviy mashq qilish qopiga o'xshash korikos qo'llanilgan. U qo'y terisidan tayyorlangan bo'lib, uning jun tomoni ichkariga o'girilgan va xurmo danaklari bilan to'ldirilgan. Korikos bosh balandligida osib qo'yilgan va jangchilarga zarba mashqlarini bajarish uchun xizmat qilgan. Er kavlash va omoch haydash eng keng tarqalgan mashq sanalgan.

Qadimgi Rimda mushtlashish jangi oddiy xalq uchun tomoshaga aylangan va amfiteatrlar maydonlarida o'tka-zilgan. Mushtning zarba kuchini oshirish uchun uni qurol-lantirishning turli xil usullari (sestlar va h.k.) qo'llanilgan.

O'rta asrlarda G'arbda mushtlashish janglari ritsarlarni tarbiyalash tizimiga kirmagan, lekin xalq orasida keng tarqalgan.

XVIII asrning birinchi yarmida Angliyada sovrinli boks –qo'l jangi va tik turib kurashishning uyg'unlashgan turi paydo bo'ldi. Uning asosini o'sha davrda

Angliyada mavjud bo'lgan o'ziga xos yakkakurash turlari tashkil etdi. Musobaqalar maxsus maydonlarda o'tkazilgan, oddiy qoidalar asosida boshqarilgan va haddan ziyod qo'pol bo'lgan. Jangchilarning mushtlari himoya qilinmagan. Tomoshabinlar orasidagi bahslarni bartaraf etish maqsadida boksning birinchi qoidalari 1743-yildassirk egasi J.Brauton tomonidan ishlab chiqilgan. Qoidalar faqat 7 banddan iborat bo'lgan va jangning borishini kam miqdorda cheklagan.

Ushbu qoidalarga binoan jang tomoni 1 yard (91 *sm*) bo'lgan kvadrat bilan belgilangan va "skretch" deb nomlangan ring o'rtasidan boshlangan. Agar bokschi zarbadan yiqilib tushsa yoki muvozanatni yo'qotgan bo'lsa, ringda turgan sekundant yarim daqiqa ichida unga turishga va jangni davom ettirishga ko'maklashishi lozim bo'lgan. Bokschi "skretch"ga turib olishga ulgurmasa yoki sekundant uning mag'lub bo'lganligini e'lon qilgan bo'lsa, unga mag'lubiyat yozilgan.

Brauton qoidalari yuz yilga yaqin deyarli o'zgarishsiz amal qilib keldi. Boks texnikasi zamonaviy boksnikeydan tubdan farq qilar edi. Kurash va chalish elementlaridan foydalanish jangning kuch xususiyatiga ega bo'lishiga sababchi bo'lgan hamda ring bo'ylab tez harakatlanish imkoniyatini cheklagan, chunki bokschilar diqqati nafaqat zarbalardan himoyalanishga, balki ushlab olishlar va chalishlardan qutulib qolishga qaratilgan.

"Sovrinli London ringi qoidalari" nomi bilan mashhur bo'lgan yangi qoidalar 1838-yilda qabul qilingan. Ular 29 banddan iborat bo'lgan va ularda asosan bokschilarning harakatlariga emas, balki garov boylovchilar uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan musobaqalarning yuridik tomonlariga aniqliklar kiritilgan.

Bokschilarning mashg'ulotlari zamonaviysidan ancha farq qilgan. U sovrinli boks qoidalari xususiyatlarini aks ettirgan va nooqilona bo'lgan. Odatda mashg'ulotlar musobaqalar boshlanishidan uch oy oldin boshlangan va har kungi og'ir mehnat tarzida kechgan. Bunda chidamlilikni tarbiyalash birinchi o'rinda turgan.

Bokschilarning ochiq mushtlar bilan olib boriladigan jangning qo‘polligi sportchilarni o‘ziga tortmas edi, shuning uchun 1867-yilda yangi qoidalar Kvinsberri qoidalari qabul qilinadi. Bu qoidalar boks xususiyatini tubdan o‘zgartirib yuboradi va uning sport turi sifatida rivojlanishiga asos soladi.

-jang 24 futli kvadrati ichida olib borilishi kerak.

-raqibni ushlab olish, gavda bilan itarish, brosek, tirsak bilan zarba, tizza bilan zarba berish taqiqlangan.

-raundlar davomiligi 3 daqiqadan belgilangan.

-jang davomida raqiblardan biri yiqilsa, u birovning yordamisiz 10 soniya ichida turishi kerak bo‘lgan, bu vaqt ichida uning raqibi o‘zining burchagiga borib turishi kerak bo‘lgan, bokschi o‘rnidan turganidan keyin jang davom ettirilgan. Agarda 10 soniya ichida bokschi jangni davom ettirolmasa, unga refiri mag‘lubiyat e‘lon qilgan.

-ring arqonlaridan qo‘li bilan ushlab yurgan bokschi yiqilgan xisoblangan.

-jang davomida ikkita bokschi va refiridan boshqa xechkim ringga chiqishga xqqi bo‘lmagan.

-charim qo‘lqopda chiquvchi bokschilarning qo‘lqoplari raqibiniki bilan bir xil vazinli bolishi kerak, bintlar yangi va sifatli bo‘lishi shart.

-charim qo‘lqoplar yirtilgan yoki yaroqsiz xolga kelgan bo‘lsa, uni refiri talabiga ko‘ra almashtirish kerak.

-ring poligp tizzasi teygan bokschi yiqilgan hisoblangan.

-oyoq kiyimi o‘tkir tishli bo‘lishi taqiqlangan.

-jang bokschilarning bittasining g‘alabasi bilan tugagan (duruang, faqat garov qo‘yuvchilarning kelishuviga ko‘ra belgilangan)

-qolgan boshqa xollarda ”sovrinli london ring qoidalari” shug‘ullangan.

Jangga bir qator shartlar kiritilgan. Jang raundlarga bo‘lingan, ular orasida tanaffuslar belgilangan va natijada olishuv sur‘ati tezlashgan, bokschilarning harakatlari shiddatli tus ola boshlagan. Raundlarning oldindan belgilangan soni va davomiyligi bokschilarga o‘z kuchlarini to‘g‘ri taqsimlashga imkon yaratgan, raundlar orasidagi tanaffuslarda esa sportchilar dam olib, keyingi raundlarda

yanada chaqqonroq harakat qilganlar. Boksni kurashga aylantirib yuborgan ushlab olishlarning man qilinishi bokschilar harakatlarini kuch ishlatuvchi harakatlardan tozalagan va ularga tezkorlik bergan (22,28,30).

Zarbalarning xavfsiz, himoya texnikasining esa yanada turli-tuman va ishonchli bo'lishiga yordam bergan yumshoq qo'lqoplar kiritilgan. Bu zarbalarning xususiyatiga ham ta'sir ko'rsatgan. Agar oldin bokschilar ochiq qo'llariga jarohat etishidan qo'rqib ehtiyotlik bilan zarba bergan bo'lsalar, endi ular o'zlarining zarba kuchini solishtirish imkoniyatiga ega bo'lganlar, bir qator yangi himoya turlaridan (kaft, elkani zarbaga tutib berish va h.k.) foydalana boshlaganlar.

Qo'lqoplarning kiritilishi uchrashuvda ochkolar bo'yicha g'alaba qozonishga imkon yaratgan. Agar ilgarilari eng kuchli va chidamli bokschi g'olib bo'lgan bo'lsa, endi eng mohir bokschi g'alabaga erishishi mumkin bo'lgan. Sportchilar vazn toifalariga ajratilishi bilan boks og'ir vaznlilar yakkaxonligidan holi bo'lib, uning ommaviyligi yanada oshdi.

Kvinsberri qoidalari zamonaviy professional va havaskorlar boksi qoidalari uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ommaviy tomoshalar rivojlanib borishi bilan inglizlarning sovrinli boksi professional boksga o'rnini bo'shatib beradi. Professional sport to'laligicha ishbilarmonlar qo'lga o'tadi. Lekin boks, foyda keltirish uchun mo'ljallangan tomosha sifatida, eski qoidalar asosida rivojlana olmas edi.

Bizgacha etib kelgan ilmiy-uslubiy adabiyotlar va adabiy yodgorliklar, rasmlarni guvohlik bericha boks qo'l jangi sifatida birinchi marta miloddan avvalgi 688 yili birinchi marta Olimpiada o'yinlariga kiritildi. Yillar davomida turli xalqlar orasida boks qo'l jangi sifatida rivojlana boshlagan. Boks zamonaviy Olimpiada o'yinlariga birinchi bor 1904 yildan boshlab kiritilgan.

1.2. O'zbekistonda boks sportining kirib kelishi va rivojlanish boskichlari

Mamlakatimizda 1940- yillarga kelib, O'zbekiston boks maktabi tarbiyalanuvchilari aka-uka Ибъа va Ruben Davidovlar O'zbekistonda birinchi

sport ustasiligini olishgan. Bu murabbiylar tomonidan qilingan say xarakatlarning mevasi edi. Bu bilan biz aytmokchimizki urish yillari va kegingi yillarda erishilgan natijalar yuqori bo'lmasada, biz buni salbiy baholashga haqli emasmiz, sabab shundaki urish yillarida va urishdan kegingnigi yillarda erishilgan natijalarni o'zi ham katta yutuq xisoblanadi. Chunki urish yillarida sportchilar, nafaqat sportchilar balki oddiy aholini yashash tarzi ham juda achinarli bo'lganligi, bu barchamiz uchun sir emas.

Il'ya Davidov uch marta; 1944-1946- 1947 yillarda mamlakat birinchiligida Ruben Davidov 1945- yilda sovrindor bo'lishgan. (4.b-130)

1947- yilda O'zbekiston bokschilari (kattalar va o'smirlar) mamlakat birinchiligi musobaqalarida qatnashdilar va umum jamoa hisobida fahrli VII-o'rinni egallashdilar. Sobiq ittifoq miqyosida umum jamoa hisobida erishilgan natija, bu murabbiylar tinimsiz mehnatlari mevasi edi.

S. L. Jekson mashaqatli mehnatlari samarasini aka-uka Il'ya va Ruben Davidovlar, M. Frank, M. Goroxovskiyy va boshqalar erishgan yutuqlarda ko'ra boshladi. 1947-1948 yilga kelib o'zbek boks maktabi tarbiyalanuvchilar qatorida yangi nomlarning paydo bo'lishi ommaviylik va rivojlanganlik darajasini ortganligidan dalolat beradi. (4.b-439)

Bir kuni shunday bo'ldiki to'qqizinchi sinfdan hamma bolalar mashg'ulotlarga qatnasha boshladilar, lekin sportning olishuvlaridan keyin murabbiyda ularning ichidan faqat bittagina eng kuchli, chidamli va ist'edodli Borya Gronatkin qoldi. U «Eng kuchli g'olib bo'lsin!» degan qoida bilan ko'pgina sinfdoshlarining boks bilan shug'illanish xoxishlarini chippakka chiqardi

O'sha vaqtlarda uning og'irligi ancha katta 75 kg ni tashkil etar edi. Uning shunday sport parvozi sezilmasdan qolmadi. Keyingi yillar, uning uchun yulduzli damlar bo'lgan 1952- yilda O'zbekiston boks ustasi o'z yoniga oldi. (4.b-146)

Va huddi shu yilning o'zida Borya Gronatkin Samarqandda o'smirlar o'rtasida Respublika chempioni bo'ldi. Va yana o'sha yilning o'zida Vil'nyusda o'tkazilgan Sobiq ittifoq birinchiligi musobaqasida qatnashdi. Lekin ... ikkinchi jangida-yoq achinarli anglashinmovchilik kelib chiqdi. U endi uchinchi razryadga ega bo'lgan bo'lsa, lekin raqibi sport ustasi edi. Mana shuning uchun, olishuvni davom ettirishga yul qo'yishmadi.

Keyingi yilda u o'ninchi sinfda o'qib o'smirlar o'rtasida O'zbekiston chempioni bo'ldi. Yana o'smirlar o'rtasida Ittifoq birinchiligi musobaqalarida oldingi yilgi voqea birga – bir takrorlandi.

Boris Gratkinning 1952 yilda-yoq «Dinoma» sport jamiyatida M.Fankga murabbiylik faoliyatida yordam bera boshlagan edi. YArim va o'rta vaznlardan Xasan Karimov; Viktor efimov; Il'gor egamberdiev va boshqa sport ustalari o'zlarining sport epopiyalarini undan boshlagan edilar.

1952 -1954 -1956 yillarda VI – VII - IX O'zbekiston halqlari Spartakiadasida SHokir Zokirov o'rta engil vaznda g'oliblikni qo'lga kiritgan.

SHokir Zokirov 1955 - yilning ikkinchi yarimidan boshlab O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya institutining talabasi bo'ldi. Va shu yili, hammada keyingi yili B. A. Gronatkinga va engil vaznli V. I. Agaronov har qaysi vazn toifalarida 16 tadan iborat Ittifoqning eng sara bokschilari qatorida Sobiq Ittifoqning shaxsiy birinchiligi qatnashchilari bo'lib, u erda O'zbekiston Respublikasidan nim chorakka yo'llanma oladi.

Va to'qqiz yil (1954-1963yillar) u O'zbekistonning eng kelajagi porloq bokschilaridan edi.

1955 yilda u yoshlar orsida Sobiq Ittifoq birinchiligida, shuningdek “Buravestnik” MS da finalga chiqadi. U erda ham, bu erda ham faqat finalda a'lochi bokschi Anatoliy Xotenchikka yutqazib qo'yadi. 1955- yilda B. A.Gronatkin kattalar orasida Sobiq Ittifoq birinchiligida finalga chiqib oladi .

O'shanda u ochkolar soni buyicha faqat RSFSR lik zo'r bokschi Askol'd Lyasotaga yutqazadi. (4.b-146)

U O'zbekton terma jamoasi tarkibida Sobiq Ittifoq xalqlari Spartakiadasida uch bor qatnashadi. Lekin endi u erda "Dinamo" sport jamiyatidan chikib qatnashadi. Xuddi shunday 1956 - yilda 75 kg vaznda beshinchi o'rinni egallaydi. Va keyinchalik esa 81 kg vaznda beshinchi o'rinni egallaydi.

O'ziga xoslik butun umrining boksga bag'ishlaganlar odatda xayotining egri –bugri va sirpanchiq yullaridan ishonch va shaxdamlik bilan ketadilar.

Bularga xech narsa emas! Har biri, bir metr bo'lsa ham, bir qarich bo'lsa ham, faqat olg'a! CHunki ular shunday toblanganlar!

1950-1960 yillarda boks bo'yicha bir necha bor, O'zbekiston chempioni bo'lgan taksi xaydovchisi SHokir Zokirov va uning murabbiylari Sidney Jakson va Batu Gazizov yigitning shunday g'ayratli qilishni uddasidan chiqqanki, u sakkiz yil 1942-1956 yillarda, boshqa faxriy unvonlardan tashqari O'zbekiston chempioni bo'lib kelgan. SHularga qo'shimcha, u yana etti karra Toshkent shahar chempioni ham bo'lgan ...

1956 yilda u I Sobiq Ittifoq halqlari spartakiadasi qatnashchisi va u erda beshinchi o'rinni egallab, engil vazndagi eng kuchli bokschilar sakkizligiga kiradi. 1957 - yilda esa, uning hayotida juda muhim bo'lgan voqea sodir bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi halqlari Festivalida engil vaznlar orasida fahrli ikkinchi o'rinni egallaydi.

1948-1950-1952-1954-1957-yillarda O'rta Osiyo va Qozog'iston Respublikalarida Spartakiadalar o'tkazilib, musobaqalar dasturiga boks ham kiritilgan edi. Har hil paytlarda quyidagilar g'olib bo'lgan edilar. A.Zisman (yarimengil vaznda) ; V.Kuznetsov (o'rta vazn); N. Xusnitdinov (engil vaznda); M.Frank (yarim og'ir vaznda); V.A.Agoronov (engil vaznda); F. Vasiyev (engil vazn) ; A. Topchi (o'rta vaznda); A .Baronov (og'ir vazn). (4.b-167-173)

Lekin O'zbekiston bokschilari jamoa hisobida doim Qozogistondan keyin ikkinchi o'rinda turar edi.

Bu davrda Vladimir Agafonov; Fedor Vasil'ev va Aleksey Baranovlar sport ustalari bo'lib etishdilar.

O'zbekiston bokschilarining eng yaxshi natija bilan chiqishlari 1954-yilda mamlakat jamoa birinchiligi bo'lib ular to'qizinchi o'rinni egallagan edilar. Jamoa uchun egallashgan SH. Zokirov (ukasi), V.Agaranov, V.Mikryukov, F.Vasil'ev, SH.Zokirov (akasi), N.Xusnitdinov, S.Polyakov, V.M.Misyura, e.Kuznetsov, I.YUsupov.

Aka-uka Ilya va Ruben Davidov, M.Frank, G.Goroxovskiylar ringa chiqqanlarida xaqiqatdan ham O'zbekistonda eng kuchli bokschi ekanliklarini ko'rsatar edilar.

1956 yilda armiyachi Rezansev o'rta engil vaznda faqatgina u erda Leningradlik Stolnikovga yon berib, finishga etib keldi va spartakiada medalini qo'lga kiritdi. SHunday bo'lishi ham kerak. CHunki u o'zining engil bo'lmagan hayotida doim sport bilan shug'illanishga vaqt topar edi.

Konstantin Mixaylovich Xromovning unga murabbiylik qildishlari ham juda yoqar edi. Yigitning o'zi ham boksga juda berilib ketadi, bu uning butun umri bo'yi davom etdi!...

Keyinchalik esa xuddi shu "Mehnat" sport jamiyatida itt'edodli murabbiy Aleksandr Georgivich Arsegovning juda boy tajribalarining o'ziga singdirib bordi. Bu murabbiy 50- yillarning boshlarida Fransiyada yashab yarim o'rta vaznda professional ringda muvoffaqiyatli chiqan edi. Balki shuning uchun bo'lsa kerak, bor yo'g'i bir yillik boks stajiga ega bo'lgan Aleksey Kalemsov Toshkent birinchiligida muvoffaqiyatli qatnashib finalga etib kelgan va faqat u erda, juda keskin jangda uni respublikada eng kuchli o'rta og'ir vaznli Anatoli Topchi yutadi.

Juda jiddiy o'zilishlar ham bo'lgan edi. 1958- yilda Bokuda o'tkazilgan Ittifoq birinchiligida, u faqat bitta jangda yutib chiqqan.

Lekin 1959 –1966 yillarda u engil, keyinchalik esa, yarim engil vaznda O'zbekiston g'olibi xisoblangan.

1959- yilda Maskvada o'tkazilgan ikkinchi mamlakat halqlari spartakiadasida esa Timur beshinchi o'rinni egallagan lekin uyida uch marta O'rta Osiyo va Qozog'iston g'olibi nomiga sazovar bo'lgan va yana Ozarbajon ham kirgan mintaqaviy birinchilikda uch marta yutib chiqqa. 1960-yil endi Saxalinda Aleksey Kalimasevning engil bo'lmagan sport epopeyasi davom etadi. U erda serjahl bo'lim kamanderi bo'lishga ulgirib 196-1962 yillarda u yarim og'ir vaznda uzoq SHarq harbiy okurugida birinchilikni muvoffakiyatli egallaydi.

1962- yilning iyulida esa, kelajagi porloq sportchi sifatida O'zbekiston Davlat Jismoniy tarbiya institutiga o'qishga kirishi uchun yo'llanma beriladi. Institutga kirish imtixonlarini muvaffaqiyatli topshirganidan so'ng, qurolli kuchlar safidan ozod bo'ladi. 1963- yilda u endi yarim engil vaznda uchinchi Maskva Spartakiadasida bronza medali sovrindori bo'lib, bu yuqori forumda uchinchi o'rinni egalladi. O'shanda u yarim finalda mashxur Sobiq Ittifoqning bokschisi Stanislav Stepashnikinga yutqazib qo'ygan.

Huddi shunday yuqori darajada turuvchi xaqiqatdan tug'ma bokschi og'ir vazli, Butun Ittifoq Spartakiadalar va boshqa musobaqalarda bir necha bor O'zbekiston chempioni ham bo'lgan. Va undan ko'p narsani o'rganib bo'ladigan darajada shakllangan edi.

Sportda shunday yuqori natijalarga yarim engil vaznli Timur Qosimovich G'ulomov ham erishgan. U bir necha bor O'zbekiston chempioni, 1963- yilda Sobiq ittifoq halqlari Spartakiadasida bronza sovrindori, shuningdek, ko'pgina yuqori sport musobaqalarida yutib chiqqan. 1965 yilda esa, u Sobiq Ittifoq birinchiligida kumush medal sovrindori bo'lgan. U erda deyarli baravar olishuvda u 1964- yildayok olimpiada

chempioni, shuningdek 1963-1965 yillarda evropa chempioni bo'lgan S.Stepashkinga yana yutqazib qo'ydi. (4.b -156)

O'sha shiddatli, tez sura'tli olishuvda raqobatlaridan bittasi ham nakdaunt xolatiga tushmagan bo'lsada, baribir g'oliblik unga nasib qilmadi

Timur G'ulomov aytganidek o'ziga hos xususiyat: Ringdagi o'n bir yillik jangda hatto nakdaun bir marotaba bo'lsa ham nakdaunt xolatida bo'lmaganman va birdan bir "qo'rquvchi" groggi xolatidir

Hammasi bo'lib u ringda 180 ta jang o'tkazgan. Ulardan 165 tasi g'alaba qozangan va janglarining ko'pini nakaut bilan tugatgan.

1961 yilda esa, endi kattalar orasida mamlakat birinchiligida u faqat Olimpiada chempioni va ikki karra evropa chempioni, shuningdek, olti karra Sobiq Ittifoq chempioni Boris Logutinga yutqazadi.

Va 1956-1965 yillarda Iosov Budman Sobiq Ittifoq termasi tarkibida bo'lgan. 1962-yilda esa, O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya institutini muvaffaqiyatli tamomlab yana murabbiylik faoliyatiga qaytadi.

Iosov Budman o'zi chapaqay bokschi bo'lgan, uning sevimli zarbalari gavdaga chap apperkot va tezlik bilan chapdan boshga zarba berish.

U faxriy sport ustasi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan murabbiy uning shaxsiy xisobida hammasi bo'lib 221 ta jang bor. Va bundan 50 ta jangini nakaut bilan tamomlagan.

1965-1970- yillarda esa, u "Spartak" bokschilarining katta murabbiysi bo'lib faoliyat ko'rsatgan.

1.3. Mustaqillik yillarida o'zbekistonda bokschilarini yutuqlari

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda boks yanada ommalashdi. Mamlakatimizning hamma viloyatlarida boks maktablari muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelmoqda. Ular orasida Andijon boks maktabi haqiqiy etakchi, boks markazi hisoblanadi. Bu erda zamonaviy boksning yirik mutaxassisleri M.G. Qo'ch-qorov va A.A. Razmaxov sermahsul faoliyat yuritib keladilar.

Butun jahonga taniqli bo'lgan bokschilar – XXVI Olimpiya o'yinlari sovrindori K.To'laganov; XXVII Olimpiya o'yinlari chempioni, 1999-yil jahon chempioni, 1998-yil jahon Kubogi sovrindori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sportchi Muhammadqodir Abdullaev; 1999 va 2000-yillar jahon chempioni, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sportchi Ruslan CHagaev; XXVIII Olimpiya o'yinlari sovrindori, 1999-yil jahon chempioni O'tkir Haydarov; XXVII Olimpiya o'yinlari bronza medali sohibi Sergey Mixaylov; 1997 va 1999-yillar Osiyo chempioni, jahon chempionati va Kubogi finali ishtirokchisi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sportchi To'lqin Turg'unovlar mazkur maktabda tarbiyalanib, voyaga etganlar.

Samarqand, Buxoro, Jizzax, Xorazm boks maktablari ham o'z o'rinlariga ega. Toshkent viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi bokschilari kuchli sportchilar hisoblanadi.

Mustaqilligimizning birinchi yillarida bokschilarimiz xalqaro musobaqalarda 12 ta medal sohibiga aylandilar. Artur Grigoryan X sobiq Ittifoq xalqlari Spartakiadasida va Ittifoq Kubogida ikkita oltin medalga sazovor bo'ldi.

1992-yilda bokschilarimiz xalqaro musobaqalarda 15 ta medalni qo'lga kiritdilar. A.Grigoryan MDH chempionati g'olibi bo'ldi va xalqaro turnirlarda yana 7 ta medallar qo'lga kiritildi. Mustaqil O'zbekiston boks maktabi shu tarzda shakllandi. 1992-yil 9-aprelda boks murabbiylari va mutaxassisleri ishtirokidagi konferensiyada O'zbekiston boks federatsiyasi mustaqil jamoat tashkiloti sifatida ta'sis etildi. Sportchilarimizning Tampera shahrida (Finlyandiya) o'tka-zilgan jahon chempionatida ishtirok etishi 1993-yildagi eng muhim voqea bo'ldi. Toshkentlik armiyachi Hikmatilla Ahmedov 51 kg gacha bo'lgan vaznda kumush medalni qo'lga kiritdi. Bu musobaqada qatnashgan N.Otaev (67 kg, Kogon, Buxoro) va O.Maskaev (91 kg dan yuqori, Toshkent viloyati) 5-o'rin sohibiga aylandilar.

1994-yilda O'zbekiston bokschilari xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etib, 41 ta medal, ulardan 22 ta oltin medalni qo'lga kiritdilar.

1994-yil – Xirosima shahridagi XII Osiyo o‘yinlari bo‘lib o‘tadigan yil. Bu erda mustaqil O‘zbekiston vakillari Osiyo hamjamiyati oldida birinchi bor namoyon bo‘ldilar. Sportchilarimizning Osiyo o‘yinlaridagi ishtiroki natijalari juda salmoqli bo‘ldi. Xorazm viloyati Xo‘jayli shahri vakili A.Avazboev va Toshkent viloyati bokschisi O.Maskaev 91 *kg* gacha va 91 *kg* dan yuqori bo‘lgan eng og‘ir vazn toifalarida ishtirok etib, Osiyo o‘yinlari g‘olibi bo‘ldilar. N.Otaev (67 *kg*, Buxoro), D.YOrbekov (75 *kg*, Samarqand) bronza medali sovrindorlariga aylandilar.

1994-yil O‘zbekiston bokschilarining xalqaro turnirda g‘olibona ishtiroki bilan boshlandi. Hindiston poytaxti Dehli shahrida o‘tkazilgan musobaqada 7 nafar sportchimiz g‘oliblikni qo‘lga kiritdilar. Bular – D.Xaitov (48 *kg*, Buxoro), O‘.Siddiqov (54 *kg*, Qo‘qon), F.Bakirov (63 *kg*, Toshkent viloyati), N.Otaev (67 *kg*, Buxoro), I.Berdiev (71 *kg*, Toshkent), I.Bukin (75 *kg*, Toshkent). Ikki nafar sportchimiz: F.Turdiyev (48 *kg*, Andijon) va G.Ibragimov (81 *kg*, Toshkent viloyati) Bishkek shahridagi (fevral, 1994 y.) xalqaro turnirda g‘olib bo‘ldilar. X.Ahmedov (51 *kg*, Toshkent), M.Abdullaev (57 *kg*, Andijon), O.Maskaev (91 *kg* dan yuqori, Toshkent viloyati) Turkiyadagi xalqaro turnir g‘olibiga aylandilar.

Bangkokda (iyun, 1994-y.) o‘tkazilgan jahon Kubogida N.Otaev oltin, O.Maskaev kumush va T.Ibragimov bronza medalini qo‘lga kiritdilar. (31,33)

1995-yil 1-5-sentyabr kunlari Toshkentda bo‘lib o‘tgan birinchi Osiyo chempionati o‘zbek bokschilari o‘zlarining raqiblari bo‘lgan Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston bokschilari ustidan yirik g‘alabaga erishdilar. Hamma vazn toifalarida bokschilarimiz sovrinli o‘rinlarni egalladilar. Ulardan D.YUldashev (48 *kg*, Farg‘ona), M.Abdullaev (60 *kg*, Andijon), N.Otaev (67 *kg*, Buxoro), K.To‘laganov (71 *kg*, Samarqand), R.CHagaev (91 *kg*, Andijon), Sayfullaev (91 *kg* dan yuqori, Qo‘qon) chempionati g‘olibi bo‘ldilar; T.Tulyakov (54 *kg*, Andijon), D.Karimov (57 *kg*, Jizzax), T.Ibragimov (81 *kg*, Xorazm), N.Sultanov (63,5 *kg*, Toshkent) kumush medalini qo‘lga kiritdilar.

1995-yil yakunida bokschilarimiz CHimkentda o‘tkazilgan xalqaro turnirda muvaffaqiyatli qatnashib, I.Berdiev, R.CHagaev – oltin; S.Mixaylov (81 *kg*,

Andijon) – kumush; YA.Kulkov (71 kg, Toshkent) bronza medallariga sazovor bo‘ldilar.

1996-yilda o‘zbek bokschilari mustaqil jamoa sifatida XXVI Olimpiya o‘yinlarida birinchi bor ishtirok etdilar. O‘zbekistondan 7 nafar bokschi – U.Ibragimov, M.Abdullaev, N.Otaev, K.To‘laganov, D.YOrbekov, T.Ibragimov, R.CHagaev qatnashdilar.

Olimpiadada K.To‘laganov (murabbiylari – F.Pak, X.Muxamedov) hammadan yaxshiroq ishtirok etdi. U shiddatli janglarda qatnashib, bronza medali sohibiga aylandi. N.Otaev va D.YOrbekov 5-8-o‘rinlarni; U.Ibragimov va T.Ibragimov 9-15-o‘rinlarni; M.Abdullaev va R.CHagaev 16-32-o‘rinlarni bo‘lishib oldilar (33,35).

Olimpiya o‘yinlaridan so‘ng bokschilarimiz Tampera (Finlyandiya) va CHimkent (Qozog‘iston) shaharlarida o‘tkazilgan xalqaro turnirlarda ishtirok etib, 13 ta medal, jumladan 8 ta oltin medal sohibi bo‘ldilar.

1996-yil 1-11-noyabr kunlari Kuba poytaxti Gavana shahrida bo‘lib o‘tgan o‘smirlar o‘rtasidagi jahon birinchiligida R.CHagaev bronza medalini qo‘lga kiritdi.

1997-yilning eng asosiy musobaqalari ikkinchi Markaziy Osiyo o‘yinlari, XIX Osiyo chempionati, jahon chempionati bo‘ldi. Terma jamoamiz mazkur musobaqalarga tayyorgarlik ko‘rish mobaynida bir qator xalqaro musobaqalarda ishtirok etdi. Bu erda bokschilarimiz hammasi bo‘lib turli qiymatdagi 46 ta medal, jumladan 16 ta oltin medalga sazovor bo‘ldilar.

Bokschilarimizning Italiya, CHexoslovakiya, Finlyandiyada bo‘lib o‘tgan turnirlarda erishgan g‘alabalari salmoqli bo‘ldi. Bu erda ular evropa qit‘asi-ning eng kuchli bokschilariga haqiqiy raqib bo‘la oldilar. Ushbu turnirda R.CHagaev katta muvaffaqiyatga erishdi. Avgust oyining ikkinchi yarmida Malayziyada XIX Osiyo chempionati bo‘lib o‘tdi. O‘zbekiston bokschilari 3 ta oltin, 4 ta kumush, 3 ta bronza medallarini qo‘lga kiritib, umumjamoa hisobida birinchi o‘rinni egalladilar. T.Turg‘unov (71 kg, Andijon), M.Abdullaev (60 kg, Andijon), S.Mixaylov (81 kg, Andijon) Osiyo chempioni unvoniga sazovor bo‘ldilar.

A.Rahimov (51 kg, Urganch), N.Otaev (67 kg, Buxoro), I.Berdiev (71 kg, Toshkent), D.YOrbekov (75 kg, Samarqand) ikkinchi o‘rin sohibi bo‘ldilar. Uchinchi o‘rin F.Bakirov (63,5 kg, Toshkent viloyati), T.Ibragimov (91 kg, Urganch), L.Zokirovlarga (91 kg dan yuqori, Jizzax) nasib etdi.

Bokschilarimiz Qozog‘iston poytaxti Almati shahrida o‘tkazilgan ikkinchi Markaziy Osiyo o‘yinlarida ulkan muvaffaqiyat qozondilar. 6 nafar bokschimiz O‘yinlar g‘olibiga aylandilar, 5 nafari ikkinchi o‘rinni va bir bokschimiz uchinchi o‘rinni egalladi.

Joriy yilning 16-27-oktyabr kunlari Budapesht shahrida (Vengriya) bo‘lib o‘tgan IX jahon chempionatida bokschilarimiz jiddiy sinovdan o‘tdilar. Terma jamoamiz safida qatnashgan 5 nafar bokschilar orasida R.CHagaev jahon chempioni unvoniga sazovor bo‘ldi. Qolgan bokschilarimiz 5-o‘rin bilan kifoyalandilar.

1998-yilning eng muhim musobaqalari – jahon Kubogi, “YAxshi niyat” o‘yinlari, XIII Osiyo o‘yinlari. Terma jamoamiz mazkur musobaqalarga tayyorgarlik ko‘rish davomida Osiyo mintaqasi davlatlari – Turkiya, eron, Tailand, Qirg‘izistondagi bir qator yirik xalqaro turnirlarda ishtirok etdi va umumiy hisobda 25 ta sovrinli, jumladan 13 ta birinchi o‘rinni egalladilar.

Jahon Kubogi 14-20-iyun kunlari Xitoyda bo‘lib o‘tdi. Bokschilarimiz ikkita oltin, bitta kumush, uchta bronza medallarini qo‘lga kiritdilar. M.Abdullaev va L.Zokirovlarning sharafiga ikki bor O‘zbekiston madhiyasi yangradi. T.Turg‘unov kumush medaliga sazovor bo‘lgan bo‘lsa, D.YUldashev, N.Otaev, D.YOrbekov broza medali bilan taqdirlandilar.

27-iyuldan 1-avgustgacha Nyu-YOrk shahrida (AQSH) “YAxshi niyat” o‘yinlari bo‘lib o‘tdi. T.Tulyakov oltin, D.YOrbekov esa bronza medalini qo‘lga kiritdilar.

1998-yil yakunida O‘zbekiston bokschilari butun Osiyo mintaqasida eng kuchli ekanliklarini yana bir bor namoyish etib, Tailand poytaxtida o‘tkazilgan XIII Osiyo o‘yinlarida umumjamoaa hisobida birinchi o‘rinni egalladilar. Andijonlik bokschilar M.Abdullaev, S.Mixaylov va R.CHagaev sharafiga uch

marta O'zbekiston madhiyasi yangradi. To'rt nafar sportchimiz – T.Tulyakov, T.Turg'unov, G.Sulaymonov, D.YOrbekov kumush; N.Otaev, K.Zokirov bronza medali sohibiga aylandilar.

1999-yildagi jahon chempionati (AQSH), Markaziy Osiyo o'yinlari va Osiyo chempionati o'zbek bokschilari uchun yilning eng muhim musobaqasiga aylandi. Ushbu musobaqalarga tayyorgarlik ko'rish mobaynida terma jamoamiz Vengriya, Bolgariya, Gretsiya va Rossiyada bo'lib o'tgan xalqaro turnirlarda qatnashdi va umumiy hisobda 21 ta medalni qo'lga kiritdi. SHulardan 13 tasi oltin medal. R.CHagaev uch marta, M.Abdullaev ikki marta g'oliblik shohsupasining eng yuqori o'rnidan joy oldilar.

20-27-avgust kunlari bokschilarimiz Xyuston shahrida (AQSH) bo'lib o'tgan jahon chempionatida qatnashib, mustaqil O'zbekiston tarixida birinchi bor eng kuchli raqiblar bo'lgan AQSH va Kuba terma jamoalaridan keyin umumjamoahisobida faxrli uchinchi o'rinni egalladilar. Bunday ulkan yutuqlarda Andijon boks maktabi vakillarining xizmatlari katta bo'ldi. Ular ikkita oltin (M.Abdullaev, O'.Haydarov) va bitta kumush medaliga (T.Turg'unov) sazovor bo'ldilar.

Ushbu g'alabalardan ruhlangan bokschilarimiz uchinchi Markaziy Osiyo o'yinlari va XX Osiyo chempionatida ishonchli muvaffaqiyatga erishdilar. Ikkala turnirlarda bokschilarimiz jamoa hisobida g'olib bo'ldilar. Ular Bishkek shahridan beshta oltin, ikkita kumush va to'rtta bronza medallari bilan qaytdilar. Toshkentda bo'lib o'tgan XX Osiyo chempionatida D.YUldashev, A.Rahimov, T.Turg'unov, M.Abdullaev, S.Mixaylov, R.CHagaev, R.Saidov g'oliblikni qo'lga kiritdilar; D.Nabiev (60 kg, Termiz), S.Naimov (67 kg, Sirdaryo viloyati) bronza medaliga sazovor bo'ldilar (18,26,33).

Jahon boksi etakchilaridan biriga aylangan o'zbek bokschilari shunday g'alabalar bilan 2000-yilni qarshi oldilar.

Xuddi shu yildan Sidneyda bo'lib o'tadigan XXVII Olimpiya o'yinlarida qatnashishning to'rt yillik sikli boshlandi. Olimpiya o'yinlariga tayyorgarlik ko'rish davomida bokschilarimiz ettita yirik xalqaro musobaqalarda ishtirok etib, jami 28 ta medal, jumladan 10 ta oltin medal sohibi bo'ldilar.

Olimpiya delegatsiyasi tarkibida 10 nafar sportchi: D.YUldashev, A.Rahimov, T.Turg'unov, M.Abdullaev, SH.Xusanov, D.YOrbekov, R.Saidov-lar ishtirok etdi. Olimpiya o'yinlarida andijonlik M.Abdullaev ajoyib g'alabaga erishib, olimpiya oltin medalini qo'lga kiritdi. S.Mixaylov va R.Saidov bronza medallariga sazovor bo'ldilar.

2001-yilda O'zbekiston bokschilari jahon chempionati va "YAxshi niyat" o'yinlarida ishtirok etishga tayyorgarlik ko'rdilar. Bu davrda ular bir qator yirik xalqaro musobaqalarda qatnashib, jami 40 ta medalni (14 ta oltin) qo'lga kiritdilar.

Jahon chempionati 3-11-iyun kunlari Belfast shahrida (Irlandiya) bo'lib o'tdi. Uchta sovrinli o'rin – sportchilarimizning ishtiroki natijasidir. Hammadan ham R.CHagaev muvaffaqiyatli qatnashdi. U o'zi uchun yangi, yanada og'irroq vazn toifasida (91 kg dan yuqori) jang olib borib, ikki karra jahon chempioniga aylandi. O'.Haydarov kumush, SH.Xusanov bronza medaliga sazovor bo'ldilar.

Jahon chempionatidan so'ng terma jamoamiz yana oltita yirik xalqaro turnirlarda qatnashdi. Ulardan eng nufuzlisi – Brisben shahridagi (Avstraliya) "YAxshi niyat" o'yinlari bo'lib, bu erda R.Saidov kumush, O'.Haydarov bronza medaliga egalik qildilar.

Bokschilarimiz 2003 yil Bangkok shahrida (Tayland) bo'lib o'tgan jahon chempionatida qatnashib, bitta kumush (Xusanov SH.) va ikkita bronza medallariga (Sultonov B., Saidov R.) sazovor bo'ldilar.

2004 yil Afinada bo'lib o'tgan XXVIII Olimpiada o'yinlarida Baxodirjon Sultonov va O'tkirkbek Haydarov bronza medallariga sazavor bo'ldilar.

2005 yil Xitoyda bo'lib o'tgan jahon chempionatida bokschilarimiz bitta kumush (Mahmudov D.) va ikkita bronza medallarini (Haydarov O'., Matchonov J.) qo'lga kiritdilar.

AQSH ning CHikago shahrida 2007 yil bo'lib o'tgan 14-jahon chempionatida bokschilarimizdan Abbas Otoev 81 kg vazinda oltin medalga sazavor bo'ldi.

2008 yili Xitoyning Pikin shahrida boʻlib oʻtgan yozgi Olimpiada oʻyinlarida terma jamoa aʼzolaridan bitasi ham savrundorlar qatoridan joy ololmadilar

Bokschilarimiz 2009 yil Milan shahrida (Italiya) boʻlib oʻtgan jahon chempionatida qatnashib, bitta oltin (Otaev A), bitta kumush (Rasulov e.) va ikkita bronza (Mahmudov B, Sultonov B) sazovor boʻldilar.

2011 yil Baku shahrida (Azarbarjon) boʻlib oʻtgan jahon chempionatida bokschilarimiz ikkita bronza medallariga (Latipov J., Rasulov e.) sazovor bldilar.

2012 yil Londonda boʻlib oʻtgan Olimpiada oʻyinlarida A.Otaev bronza medalga sazovor boʻldi.

Almata shahrida (Qozogʻiston) 2013 yil boʻlib oʻtgan 17-jahon chempionatida bokschilarimiz bitta kumush (Latipov J.) va bitta bronza (Mamazununov O.) qoʻlga kiritdilar.

2014 yil Koreyaning Inchxon shahrida boʻlib oʻtgan 14-yozri osiyo oʻyinlarida bokschilarimi yoshartirilgan terma jamoa bilan qatnashib bitta kumush (Madrimov I.) va ikkita bronza medallariga (Mamazulunov O., Abdullaev M.) ega bldilar.

Aytish joizki, M.Abdullaev 1997-yildan 2000-yilga qadar AIBA reytingi boʻyicha yilning eng yaxshi bokschisi sharafiga sazovor boʻlgan.

Bokschilarimizning ulkan gʻalabalari hukumatimiz tomonidan yuqori baholandi. M.Abdullaev, S.Mixaylov, SH.Xusanov, T.Turgʻunov, T.Tulyakov, Oʻ.Haydarov, R.CHagaev, D.YOrbekov, N.Otaev, A.Grigoryan, R.Saidov, T.Ibragimov, O.Maskae, B.Sultonov, e.Rasulov, A.Otoev “Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan sportchi” unvoniga sazovor boʻldilar (17,26,33).

Mustaqilligimizning 23 yili davomida Oʻzbekiston bokschilari Olimpiya oʻyinlarida har xil qiymatdagi 13 ta medal, jahon chempionatlarida 25, Osiyo oʻyinlarida 36, Osiyo chempionatida 66 ta medalni qoʻlga kiritdilar, A.Grigoryan va R.CHagaev professionallar oʻrtasida jahon chem-pioni boʻldilar.

2 BOB. TADQIQOTNING MAQSADI, VAZIFALARI, USULLARI VA TASHKIL QILINISHI

2.1. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari

Ishning maqsadi: Mustaqillikdan keyin mamlakatimiz bokschilarini xalqaro musobaqalardagi yutiq va kamchiliklarini tahlil qilish.

Tadqiqotning maqsadiga erishish uchun quyidagi vazifalarni echish talab qilindi:

1. Mustaqillikdan keyin mamlakatimiz bokschilarini xalqaro musobaqalardagi ishtiroklarini tahlil qilish;
2. Mustaqillikdan keyin mamlakatimiz bokschilarini xalqaro musobaqalarda yo'l qo'yilgan texnik xatolarini o'rganish va ularni bartaraf qilishni samarali yo'llarini taklif qilish.

2.1. Tadqiqot uslublari quyidagilardan iborat

Qo'yilgan vazifalarni echish uchun tadqiqotning quyidagi usullari qo'llanildi:

- ilmiy-metodik adabiyotlar tahlil;
- pedagogi kuzatuv va videokuzatuv;
- ekspert baholash uslubi;
- matematik-statistik xisoblash.

2.2.1. Ilmiy-metodik adabiyotlar taxlil

Ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish bokschilarning sport mashg'ulotini xususan musobaqaoldi va musobaqa davridagi tayyorgarlikning har xil bosqichlarida yuqori malakali bokschilarni sport maxoratini oshirishga yo'naltirilgan muammolarini o'rganishga yo'naltirildi. Yuqori malakali bokschilarning sport maxoartini takomillashtirish metodikasining xususiyatlari o'rganiish bo'yicha ko'plab ilmiy-uslubiy adabiyotlar o'rganildi.

2.2.2. Pedagogik kuzatishlar va videokuzatuv

Pedagogik kuzatishlar bokschilarning musobaqa faoliyatini tadqiq qilish maqsadida qo'llanildi. Pedagogik kuzatishlarning asosini bellashuvlarni olib borish vositalarini qo'llash xususiyatlarini o'rganildi. Qo'llanilgan hujum va himoya harakatlarini natijaviyligi ko'rsatkichlari qayd qilindi, harakatlarda aniqlik "xatolar"ni yuzaga kelishi sabablari aniqlandi.

Videomateriallarning tahlili pedagogik kuzatishlar asosida olingan ma'lumotlarni ob'ektivlashtirish hamda bokschilar musobaqa faoliyatining o'rganilayotgan tomonlarini yanada to'liq detallashtirish maqsadida qo'llanildi.

Tahlil uchun, asosan, butun bellashuvlarni vide tasmasidaga yozuvlari qo'llanildi. Bellashuvlarning ko'pchilik qismi ikkita va uchta har xil nuqtalardan amalga oshirildi. Sekinlashtirilgan holda amalga oshirilgan videoyozuvlar hamda bir nechta har xil nuqtalarda tasvirga olingan suratlar bokschilarning harakat faoliyatini ancha ob'ektiv baholashga imkon berdi.

Videoyozuvlarni tahlil qilish paytida bokschilar musobaqa faoliyatining miqdoriy va sifat tavsiflari qayd qilindi.

2.2.3. Ekspert baholash uslubi

Ushbu ishda O'zbekiston terma jamoasi bokschilarini xalqaro musobaqalardagi texnik-taktik harakatlarini baholash uchun tajribaslov o'tkazildi. ekspert guruhi 5 kishidan iborat yuqori malakali mutaxassislardan tashkil topdi (R.D.Xalmuxammedov, M.Maxmudov, F.Turdiev, G'.Rajabov va S.Tojiboev). Baholash shaxsiy fikr bildirish uslubi bilan amalga oshirildi. Bunda sinovchilar fikrlarining muvofiqlik darajasini guruhli baholash uchun konkordatsiya koeffitsienti (W) qo'llanildi. U bizning tadqiqotlarimizda juda yuqori, ya'ni 0,803 teng bo'ldi va ishonchlidir ($R < 0,01$). Bu sinovchilarning fikrlari qonuniy bir-biriga muvofiqligidan darak beradi.

2.2.4. Matematik statistik uslublar

Tadqiqot natijalari matematik statistik usul bilan ishlab chiqildi, unda tadqiqot oldidan va tadqiqot ohiridagi bokschilar tamonidan qo'llanilgan himoya harakatlari ko'rsatkichlari hisoblandi. SHuningdek statistik farazlar (stъyudent t-mezoni bo'yicha) tekshirildi.

III. BOB. TADQIQOT NATIJALARI

3.1. O‘zbekiston bokschilarini mustqillikdan keyingi Olimpiyada

va Osiyo o‘yinlaridagi ishtiroki taxlili

Asrlar osha do‘stlik, halollik, beg‘arazlik ruhini saqlab kelayotgan Olimpiya o‘yinlarini o‘tkazish g‘oyasi ham inson tafakkuri ijodiga mansubdir.

Tarixdan ma‘lumki, Qadimgi YUnoniston, aniqrog‘i, Olimp shahri Olimpiya o‘yinlari vatani hisoblanadi. U Peloponess yarim orolining G‘arbiy qismida joylashgan. Zamonaviy Olimpiya o‘yinlari mash‘ali Alfey daryosi vodiysidagi Kronos tog‘ yon bag‘irlarida yoqiladi. SHu erdan o‘yinlar poytaxtigacha mash‘al estafetasi boshlanadi.

Olimpiya o‘yinlari Geraklning eng shavkatli g‘alabalaridan biriga bag‘ishlangan. Gerakl o‘z oyog‘lari kafti bilan yugurish masofasini belgilagan va u olti yuzta oyoq kaftiga (192 m 27 sm) to‘g‘ri kelgan. Qadimgi YUnonistonda bu o‘lchov «stadion» deb yuritilgan, shundan «stadion» so‘zi kelib chiqqan. Ko‘p yillar davomida yugurish bo‘yicha g‘olib aynan shu masofada aniqlanar edi.

Olimpiya o‘yinlari shiori — «Tezroq, yuqoriroq, kuchliroq». Aynan Olimpiya o‘yinlarida inson imkoniyatlari barkamol-ligining chegarasi yo‘qligi isbotlanadi. Olimpiya sport maydonlarida sport natijalarining «portlashi» yuzaga keladi. SHu sababli Olimpiya o‘yinlari qadimdan eng e‘zozlangan bayramlari- dan biri hisoblangan. Qadimgi yunonlarda Olimpiya o‘yinlari qahramonlari nomlarini Alfey daryosi yaqinida o‘rnatilgan marmar ustunga o‘yib yozish an‘anaga aylangan. Birinchi Olimpiya o‘yinlarining o‘tkazilgan sanasi (m.a. 776 y.) va elidalik oshpaz Koroibos to‘g‘risida insoniyat ana shu marmar ustundagi yozuvdan ma‘lumot olgan.

Olimpiyada o‘yinlari azal-azaldan to‘rt yillikning eng nufizli musobaqalaridan sanalib kelgan, bu musobaqalarda ishtirok etishni xoxlamagan sportchilar bo‘lmasa kerak.

Tadqiqotimiz maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan xolda O‘zbekiston bokschilarining Olimpiyada o‘yinlarida ishtiroklarini taxlil qilamiz. Bizga

ma'lumki mamlakatimiz mustaqil davlat sifatida 1996 yilda bo'lib o'tgan yozgi Olimpiyada o'yinlarida bokschilarimiz ilk bora mustaqil jamoa sifatida musobaqalarda ishtirok etdilar.

SHu davrlarda 67 kg vazinda ixtidorli bokschilarimizdan biri N.Ataev chorak finalda (15:28) xisobi bilan Puerto-Riko vakili D. Santosga mag'lub bo'ladi. CHorak finalda yana bitta vakilimiz 75 kg vazinda Olimpiyada o'yinlariga yo'llanma olgan D. YArbekov (8:8) xisobi bilan hakamlar qaroriga asosan AQSH lik R. Uells ga mag'lub bo'ladi. 71 gk vazinda mamlakatimiz shanini ximoya qilgan Karim To'laganov esa Olimpiyada o'yinlari bronza medaliga sazavor bo'ladi O'zbek bokschilarini mustaqillik yillarida Olimpiyada o'yinlarida ilk g'olibona qadamlarini boshlab beradi. K.To'laganov va jamoamiz bokschilari yutiqlariga asosan mamlakatimiz umumjamo xisobida Tunis davlati bilan bir xil natijalarga erishganligi sababli 17 o'rinni qo'lga kiritadilar.

2000 yilda bo'lib o'tgan yozgi Olimpiyada o'yinlarida O'zbekiston bokschilari shonli tarixiy yurishlariga ega bo'ldilar.

54 kg vazinda ishtirok etgan xamyurtimiz Alisher Raximov saralash janglarida Janubiy Koreya vakili Seok Xvan-CHxoya ni muddatidan oldin mag'lub etib mutloq g'olib bo'ldi. Afsuski chorak finalda A.Raximov Rassiyalik mahoratli bokschi Raimkul Malaxbekovga (16:10) xisobi bilan mag'lubiyatga uchraydi.

57 kg vazinda musobaqada ishtirok etgan Andijon boks maktabi tarbiyalanuvchisi Tulkunbay Turgunov saralash janglarida (12:3) yirik xisobda Uganda davlati bokschisi Kassim Adam Napa mag'lubiyatga uchratadi. Xamyurtimiz T.Turgunov afsuski ikkinchi saralash janglarida kichik ustunlik bilan (2:7) xisobi bilan Somluk Kamsing Tailandlik bokschiga mag'lub bo'lgan.

63,5 kg vazinda ishtirok etgan maxoratli bokschimiz Muxammadqodir Abdullaev chorak finalda (9:3) xisobi bilan Sergey Bukovskiyni, yarim finalda mutloq ustinlik bilan muddatidan oldin Aljirlik Moxamed Allalu ni mag'lubiyatga uchratib final janglarida qatnashishga yo'llanma oladi, final janglarida AQSH lik Rikardo Uilbyams ustidan (20:27) xisobi bilan g'alaba qozonib O'zbekiston bokschilari orasida birinchi Olimpiyada o'yinlari oltin medaliga sazavor bo'ladi.

81 kg vazinda Olimpiyada o'yinlarida ishtirok etgan bokschimiz Sergey Mixaylov chorak finalda Qazoqistonlik Oljas Orazalievni muddatidan oldin mutloq ustunlik bilan mag'lubiyatga uchratib yarim finalga yo'llanma oladi. S.Mixaylov yarim finalda Rassiyalik Aleksandr Lebzyakka muddatidan oldin g'alabani boy berib XXVII Olimpiyada o'yinlarining bronza medaliga sazovor bo'ldi.

91 kg vazinda musobaqada qatnashgan umidli bokschilarimizdan biri bo'lgan Ruslan CHagaev afsuski chorak finalda Gruziyalik Vladimir CHanturiyaga (18:13) xisobi bilan mag'lubiyatga uchraydi.

91 kg vazindan ortiq bokschilar qatnashgan musobaqa dasturlarida qatnashgan xamyurtimiz Rustam Saidov chorak finalda Kanadalik raqibi Art Binkovskini mutloq ustunlik bilan muddatidan oldin mag'lubiyatga uchratib yarim finalga yo'llanma oladi, u yarim finalda Qazaqistonlik mahoratli bokschi Muxtarxan Dil'dabekovdan ochikolar xisobida (28:22) mag'lubiyatga uchraydi. R.Saidov Olimpiyada o'yinlari bronza medaliga sazovor bo'ldi.

SHunday qilib 2000 yilda bo'lib o'tgan Olimpiyada o'yinlarida bokschilarimiz umum jamoa xisobida 1 ta oltin va 2 ta bronza medallarini qo'lga kiritib 6-o'ringa sazovor bo'ldilar.

2004 yilda bo'lib o'tgan yozgi Olimpiyada o'yinlarida O'zbekiston bokschilari judayam yuqori natijalarni ko'rsatishmadi. Ammo, mamlakatimiz bokschilar umum jamoa xisobida Azerbaydjan, Germaniya va Janubiy Koreya davlatlari bilan yig'gan ochkolari teng bo'lganligi sababli 12-o'rindan joy olishdi.

54 kg vazinda ishtirok etgan xamyurtimiz, umidli bokschi Baxodirjon Sultanov yarim finalda ochkolar xisobi bilan Kubalik Gil'ermo Rigondoga mag'lubiyatga uchrab Olimpiyada o'yinlari bronza medaliga sazovor bo'ldi.

81 kg vazinda tajribali bokschimiz 1999 yilda bo'lib o'tgan jaxon chempionati g'olibi O'tkirbek Xaydarov yarim finalda AQSH lik bokschi Andre Uord ga mag'lub bo'lib, u xam Olimpiyada o'yinlari bronza medali soxibi bo'ldi.

2008 yil Pikinda bo'lib o'tgan yozgi Olimpiyada o'yinlarida O'zbekiston bokschilari eng yomon natijaga erishdilar. Bokschilarimizdan birontasi ham savrindorlar qatoridan joy olisha olmadilar.

2012 yil Londonda bo‘lib o‘tgan yozgi Olimpiyada o‘yinlarida O‘zbekiston bokschilarida ulkan g‘alabalarni kutgan edik ammo, bokschilarimizdan faqat bttasi Abbos Atoev yarim finalda Yaponiya vakili Ryota Murataga kichik ustunlik bilan mag‘lubiyatga uchrab Olimpiyada o‘yinlarining 3-o‘rinnini egalladi.

Mamlakatimiz bokschilarimiz yig‘gan ochkolariga asosan umum jamoa xisobida Indiya,Tadjikiston, Bolgariya va Litva davlatlari bilan yig‘gan ochkolari teng bo‘lgan xolda 16- o‘rinni egalladilar.


1-jadvalda mamlakatimiz bokschilarining mustaqillik yillarida Olimpiyada o‘yinlarida umum jamoa xisobida olgan o‘rinlari keltirilgan.

1-jadval

Olimpiyada o‘yinlarida O‘zbek bokschilarini ishtiroklari taxlili

		Umumiy medallar soni			
O‘rin	Olimpiyada o‘yinlari	Oltin	Kumish	Bronza	Jami
1996 yili o‘tkazilgan Olimpiyada o‘yinlarida					
17	O‘zbekiston Respublikasi	0	0	1	1
	Tunis	0	0	1	1
2000 yili o‘tkazilgan Olimpiyada o‘yinlarida					
6	O‘zbekiston Respublikasi	1	0	2	3
2004 yili o‘tkazilgan Olimpiyada o‘yinlarida					
12	O‘zbekiston Respublikasi	0	0	2	2
	Azerbaydjan,	0	0	2	2
	Germaniya	0	0	2	2
	Janubiy Koreya	0	0	2	2
2008 yili o‘tkazilgan Olimpiyada o‘yinlarida					
	O‘zbekiston Respublikasi	0	0	0	0
2012 yili o‘tkazilgan Olimpiyada o‘yinlarida					
16	O‘zbekiston	0	0	1	1
	Indiya,	0	0	1	1
	Tadjikiston,	0	0	1	1
	Bolgariya	0	0	1	1
	Litva	0	0	1	1

Jadvalda keltirilgan natijalarning diagramma ko‘rinishiga nazar soladigan bo‘lsak unda, bokschilarimiz 1996 yilda bo‘lib o‘tgan Olimpiyada o‘yinlarida 3,5 ball yig‘ib umum jamoa xisobida 17 o‘rinni egallagan.



1-diagrammada O'zbekiston bokschilarining 1996 yildan 2012 yilgacha bo'lga Olimpiyada o'yinlarida AIBA tamonidan berilgan ballari keltirilgan

Diagrammaga nazar soladigan bo'lsak bokschilarimiz tamondan eng yaxshi natija 2000 yilda bo'lib o'tgan Olimpiyada o'yinlaridagi natijalar bo'lib, unda 1 ta oltin va 2 ta bronza medallariga sazavor bo'lib, bokschilarimiz 15,5 ball yig'ib umum jamoa xisobida 6-o'rinni egalladilar.

2004 yili bo'lib o'tgan Olimpiyada o'yinlarida bokschilarimiz 7 ball to'plab umum jamoa xisobida 12-o'ringa sazavor bo'lishdi.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin bokschilarimiz tamonidan eng yomon ko'rsatkich 2008 yil Pekinda bo'lib o'tgan Olimpiyada o'yinlari natijasi xisoblanadi.

2012 yilda bo'lib o'tgan Olimpiyada o'yinlarida bokschilarimiz 3,5 ball to'plab 1996 yilda ko'satilgan natija yana bir bora qaytarilishiga erishdilar.

Olingan natijalarning taxlilga ko'ra o'zbek bokschilarni Olimpiyada o'yinlaridagi eng yuqori natija bu 2000 yilda o'tkazilgan Olimpiyada o'yinlari bo'lib unda bokschilarimiz 1 ta oltin va 2 ta bronza medallariga sazavor bo'lganlar.

Eng yomon natija esa 2008 yil Pikinda boʻlib oʻtgan Olimpiyada oʻyinlarida bokschilarimiz bironta savrindorlar qatoridan joy olishmadilar.

Osiyo oʻyinlarida oʻzbek bokschilari mustaqil jamoa sifatida 1994 yildan qatasha boshladilar. Osiyo oʻyinlari tarixiga nazar soladigan boʻlsak boks sport turi 1951 yildan boshlab rasmiy musobaqalar dasturiga kiritilgan.

Yil	Oʻyinlar	Oʻtkazilgan davlati	Oʻtkazilgan sanasi
1951	I	Nbyu-Deli, Indiya	4 – 11 marta
1954	II	Manila, Filippin	1 – 9 may
1958	III	Tokio, Yaponiya	28 may — 1 iyungacha
1962	IV	Djakarta, Indoneziya	24 avgust — 4 sentyabr
1966	V	Bangkok, Tailand	9—20 dekabr
1970	VI	Bangkok, Tailand	24 avgust — 4 sentyabr
1974	VII	Tegeran, Iran	1—16 sentyabr
1978	VIII	Bangkok, Tailand	9—20 dekabr
1982	IX	Nbyu-Deli, Indiya	19 noyabr — 4 dekabr
1986	X	Seul, Respublika Koreya	30 sentyabr — 5 oktyabr
1990	XI	Pekin, Kitay	22 sentyabr— 7 oktyabr
1994	XII	Xirosima, Yaponiya	2—16 oktyabr
1998	XIII	Bangkok, Tailand	6—20 dekabr
2002	XIV	Pusan, Respublika Koreya	29 sentyabr — 14 oktyabr
2006	XV	Doxa, Katar	1—15 dekabr
2010	XVI	Guanchjou, Kitay	12—27 noyabr
2014	XVII	Inchxon, Respublika Koreya	19 sentyabr — 4 oktyabr

1994 yil Yaponiyaning Xirosima shahrida boʻlib oʻtgan Osiyo oʻyinlarida mamlakatimizdan vakillari Osiyo hamjamiyati oldida birinchi bor namoyon boʻldilar. Sportchilarimizning Osiyo oʻyinlaridagi ishtiroki natijalari juda salmoqli boʻldi. Alisher Avazboev va O.MaskaeV 91 kg gacha va 91 kg dan yuqori boʻlgan eng ogʻir vazn toifalarida ishtirok etib, Osiyo oʻyinlari gʻolibi boʻldilar. N.Otaev (67 kg) va D.YOrbekov (75 kg,) bronza medali sovrindorlariga aylandilar.

1998-yil Oʻzbekiston bokschilari butun Osiyo mintaqasida eng kuchli ekanliklarini yana bir bor namoyish etib, Tailand poytaxti Bangkokda oʻtkazilgan XIII Osiyo oʻyinlarida umumjamoa hisobida birinchi oʻrinni


egalladilar. Bokschilarimiz M.Abdullaev, S.Mixaylov va R.CHagaevlar birinchi o'rin qo'lga kiritdilar. To'rt nafar sportchimiz – T.Tulyakov, T.Turg'unov, G.Sulaymonov, D.YOrbekov kumush; N.Otaev, K.Zokirov bronza medali sohibiga aylandilar.

2002 yil O'zbekiston bokschilari butun Osiyo mintaqasida eng kuchli ekanliklarini yana bir bor isbotladilar, Koreyaning Pusan shahrida o'tkazilgan XIV Osiyo o'yinlarida umumjamoa hisobida birinchi o'rinni egalladilar. Beshta bokschimiz D.Mahmudov, O'.Haydarov, I.Berdiev, R.Saidov va S.Mixaylov olti medalga sazavor bo'ldilar. B.Xidirov kumish; B.Sarsekboev, SH.Xusanov S.Naimov bronza medalini qo'lga kiritdilar.

2006 yil Qatarning Doha shahrida bo'lib o'tgan XV Osiyo o'yinlarida B.Sultonov, e.Rasulov, R.Saidov oltin medalga sazavor bo'lgan bo'lsalar, J.Matchonov ikkinchi o'rinni qo'lga kiritdi, B.Xidirov, D.Mahmudov bronza medalga sazavor bo'ldilar.

2010 yil Xitoyda bo'lib o'tgan XVI Osiyo o'yinlarida e.Rasulov oltin, A.Otaev, O'.Rahmonov kumish, S.Rahmonov, X.Tojiboev bronza medallarini qo'lga kiritdilar.

2014 yil Janubiy Koreyaning Inchxon shahrida bo'lib o'tgan XVII Osiyo o'yinlarida mamlakatimiz bokschilar yoshartirilgan terma jamoa bilan qatnashib I.Madrimov kumish medalga sazavor bo'lgan bo'lsa, O.Mamazulunov va M.Abdullaev bronza medallarini qo'lga kiritdilar.



2-diagrammada O'zbekiston bokschilarining 1994 yildan 2014 yilgacha bo'lga Osiyo o'yinlaridagi g'alabalari uchun AIBA tamonidan berilgan ballari keltirilgan.

Diagrammaga nazar soladigan bo'lsak bokschilarimiz tamondan eng yaxshi natija 1998 yilda bo'lib o'tgan Osiyo o'yinlaridagi natijalar bo'lib, unda 3 ta oltin va 4 ta kumish va 2 ta bronza medallariga sazavor bo'lib, bokschilarimiz 43 ball yig'ib umum jamoa xisobida 1-o'rinni egalladilar.

2002 yili bo'lib o'tgan Osiyo o'yinlarida bokschilarimiz yana bir bor Osiyoda tengsizliklarini isbotladilar 50,5 ball to'plab umum jamoa xisobida 1-o'rinni egalladilar.

2006 yili bo'lib o'tgan Osiyo o'yinlarida 33 ball to'plablagan bo'lsalar, 2010 yil bo'lib o'tgan Osiyo o'yinlarida bokschilarimiz 1 ta birinchi 2 ta ikkinchi va ikkita 3 chi o'rinlarga sazavor bldilar.

Osiyo o'yinlari tarixiga nazar soladigan bo'lsak bokschilarimiz 2014 yil XVII Osiyo o'yinlarida yoshartirilgan terma jamoa bilan qatnashib eng yomon ko'rsatkich erishdilar terma jamoada bitta ham oltin medal yo'q 1 ta kumish va 2 ta bronza medallarini qo'lga kiritib 12 ball to'pladilar.

Olingan natijalarning taxlilga ko'ra o'zbek bokschilarni Osiyo o'yinlaridagi eng yuqori natija bu 2002 yilda o'tkazilgan Osiyo o'yinlari bo'lib unda bokschilarimiz 5 ta oltin, 1 ta kumish va 3 ta bronza medallariga sazavor bo'lganlar. Eng yomon natija esa 2014 yil Inchxonda bo'lib o'tgan Osiyo o'yinlarida bokschilarimiz bitta ham oltin medalni qo'lga kiritishga olinmadilar. Faqat 1 ta ikkinchi va 2 ta uchinchi o'rinlarni qo'lga kiritib 12 ballga sazavor bo'ldilar xalos.

3.2. Olimpiyada va Osiyo o'yinlarida O'zbek bokschilarini

texnik-taktik harakatlari ko'rsatkichlari taxlili

Boksda musobaqa faoliyati tushunchasi orqali rejalashtirilgan natijalarga erishish yoki raqib ustidan g'alabaga erishishga yo'naltirilgan qarama-qarshilik kurashi jarayoni tushuniladi.

Boksda jang musobaqalarini tahlil qilish sezilarli darajada qiyinchiliklarga ega hisoblanadi. Bokschilarning qarama-qarshilik kurashi haqidagi to'liq hajmdagi axborotlarni yaqin vaqtlarda olishning imkoniyati mavjud emas. Aftidan, fanda odamning tabiat va jamiyatga tegishli hodisa hisoblanishi masalasi ko'rinishidagi masalalar sport uchun ham xos hisoblanadi. Bu holat ayniqsa, odamning ekstremal, ziddiyatli vaziyatlarda faoliyatida aniq namoyon bo'ladi.

Musobaqa faoliyati xuddi ko'zguda aks etishlar kabi bokschilarning mahorati va kamchiliklarini ifodalab beradi, demak, o'z navbatida bu holat

zamonaviy boksni tavsiflab beradi. Biroq, jang musobaqasining xususiyatlari murakkabligi, jumladan boksning juda yuqori tempda bajariluvchi ko'p sonidagi turli xil harakatlardan tashkil topganligi sababli musobaqa faoliyatini oydinlashtirib berish qiyin masala hisoblanadi.

Odatda, jang davomida alohida harakatlar yoki ularning epizodlarda umumiyliklari ajratib olinadi, ushbu asosda bokschilarning jismoniy va texnik jihatdan tayyorgarlik darajasini o'zida aks ettiruvchi maxsus va harakatlarga oid sifatlari, ko'nikmalari tavsiflanadi. Bu ko'rinishdagi harakatlarga eng avvalo zarbalar va himoyaga o'tish harakatlari kiritiladi.

Boksning musobaqa faoliyatini tahlil qilish uchun jangda texnik-taktik mahoratning obektiv tavsiflari aniqlanadi va boksning tayyorgarligi asosiy jihatlari ko'rsatkichlari baholanishida subektiv ekspertlar baholashlaridan foydalaniladi.

Aytaylik, boks musobaqasida ikkita raqibning faoliyati davomidagi xulq-avtor xususiyatlarini harbiy jangovar, iqtisodiy va boshqa holatlarda yuzaga keluvchi ziddiyatli vaziyatlarda raqiblarning xulq-atvoriga o'xshash tarzda hisoblashimiz mumkin, bunda mantiqiy tarzda bokschilarning texnika va taktikasi miqdoriy jihatdan tavsiflanishi uchun operatsiyalarni tadqiq qilish usullaridan foydalanish amalga oshiriladi.

Ikkita raqibning mavjudligi va bokschilarning aniq tartibda belgilangan harakatlari chegaralari belgilangan maqsadlarni hal qilishni soddalashtiradi. Boksda quyidagi uchta asosiy zarbalardan foydalaniladi: jumladan, *to'g'ridan*, *yondan* va *pastdan beriluvchi zarbalar*. Bu zarbalar chap va o'ng qo'l bilan berilishi, raqibning bosh qismiga yoki tana qismiga yo'naltirilishi mumkin. Boksda qo'llaniluvchi himoya qochishlar,

egilishlar, boshni pastga tashlash, boshni oldinga tashlash va qo'llar tagiga olish kabilardan tashkil topadi. Bokschilarning hujum qilish va himoyaga o'tish harakatlarini rasmiylashtirish davomida jang musobaqasining notatsion tizim asosidagi yozuvlaridan foydalanish mumkin, bunda ekspertlar tomonidan musobaqada bevosita ishtirok etish orqali va shuningdek janglarning video yozuvlarini tahlil qilinishi asosida baholash amalga oshiriladi.

Xalqaro miqyosda o'tkaziluvchi musobaqalarda yuqori malakaga ega bo'lgan bokschilarning musobaqa faoliyatini tadqiq qilish natijalari bo'yicha quyidagi boksning texnika va taktikasini miqdoriy baholashlar ishlab chiqilgan va muhokamadan o'tkazilgan:

- 1) jangning shartli shiddatliligi va zichligini baholash;
- 2) jangovar harakatlardan foydalanish chastotasining taqsimlanishiga asoslanilgan baholashlarni amalga oshirish;
- 3) texnik mahorat ko'rsatkichlari;
- 4) hujum qilish va himoyaga o'tish harakatlari samaradorligini baholash;
- 5) texnik-taktik jihatdan turli xilliklar ko'rsatkichlari.

Jangning shartli shiddatliligi va zichligini baholash jang raundlari va minutlari davomida bokschilarning bergan umumiy zarbalar sonini hisoblash asosida amalga oshiriladi. Bu ko'rsatkich bokschilarning og'irlik toifalariga bog'liq holatda, shuningdek bokschilarning tayyorgarlik darajasi, ularning individual texnik-taktik jihatdan harakatlari, raqibning xususiyatlari va sportchilarning malaka darajasi kabilarga bog'liq hisoblanadi. Ushbu ko'rinishda, masalan nisbatan tana vazni og'ir bo'lgan

toifalardagi bokschilar tomonidan jang davomida beriluvchi zarbalar o'rtacha soni tana vazni engilroq bo'lgan bokschilar tomonidan jangda beriluvchi o'rtacha zarbalar soniga solishtirilganda nisbatan kam bo'lishi qayd qilinadi. SHunga o'xshash ma'lumotlarga ega bo'lish orqali, jangning shartli shiddati ko'rsatkichini kiritishimiz mumkin, ya'ni daqiqa davomidagi o'rtacha zarbalar soni va bitta zarbani berish uchun sarflangan o'rtacha vaqt, shuningdek bokschilarning alohida jang shakllaridan foydalanish tavsiflari ham aniqlanadi. Masalan, jang davomida qarama-qarshi va javob tarzidagi qarshi hujumlarda, uzoq, o'rta va yaqin masofalardan berilgan zarbalar soni kabi ko'rsatkichlar hisobga olinadi.

Zarbalar chastotasi taqsimlanishiga asoslanilgan baholash bokschilarning individual manyovrlarini tavsiflab beradi va deyarli bitta musobaqa davomida, ayniqsa jismoniy jihatdan ko'rsatkichlari, shuningdek jangni olib borish manyovrlari o'zaro yaqin bo'lgan raqiblar o'rtasidagi jang davomida o'zgarmasligi qayd qilinadi.

Bokschilarning texnik jihatdan mahorati jang davomida kuzatiluvchi harakatlar bajarilishining takomillashtirilishini belgilab beradi. Biroq, har bir zarba yoki himoyaga o'tishlar ko'pincha holatlarda bir xilda bajarilmaydi va uchrashuvlarning natijalariga turli xil darajada ta'sir ko'rsatishi qayd qilinadi.

Bokschilarning hujumga o'tish va himoyaga qaratilgan harakatlari samaradorligini baholash uchun nishonga etib borgan va etib bormagan (ya'ni, qaytarilgan) zarbalar soni hisoblanib, nishonga etib borgan zarbalar umumiy sonining berilgan umumiy zarbalar soniga nisbatlari hisoblanadi

Tadqiqotlarni o'tkazish jarayonida Respublika terma jamoasiga a'zo bo'lgan bokschilarning Olimpiyada va Osiyo o'yinlari musobaqalaridagi ishtiroklari va musobaqa faoliyati ko'rsatkichlari taxlil qilindi. Jami O'zbekistonlik bokschilar tamonidan Olimpiyada va Osiyo o'yinlarida o'tkazilgan 40 ta dan ziyod janglar, 10 ta Kuba va 30 ta Rassiyalik bokschilarini janglari taxlil qilindi. YUqori malakali bokschilar tamonidan musobaqa faoliyatida qo'llanilgan texnik-taktik harakatlarni aniqlashda quyidagilar xisobga olindi:

- bokschilar tamonidan jangdagi zarbalarni umumiy soni;
- yakkali zarbalar soni;
- zarbalar seriyasi soni;
- bokschilar tamonida aniq nishonga urilgan zarbalar soni;
- qaytarilgan zarbalar soni;

O'tkazilgan ilmiy-uslubiy adabiyotlar taxlili va yuqori malakali bokschilarning musobaqa faoliyatini janglarini taxlil qilish jarayonidan shuni xulosa qilish mumkinki, musobaqa qoidalaridag o'zgarishlar va xakamlikdagi jangni baholashlardagi o'zgarishlar har doim bokschilarning o'quv-mashg'ulotlardagi tayyorgarlik jarayonini o'zgarishlarni xisobga olgan xolda o'tkazishni talab qiladi.

2012 yilda bo'lib o'tgan Olimpiyada o'yinlari va 2014 yilda bo'lib o'tgan Osiyo o'yinlari musobaqalarni kuzatganimizda shunga amin bo'ldikki jangdagi zarbalarning umumiy soni oshgan, lekin zarbalarni samaradorligini taxlil qiladigan bo'lsak noaniq zarbalar sonini ko'pligi ko'zga yaqqol tashlanadi.

YUqori malakali bokschilarning Olimpiyada va Osiyo o'yinlari musobaqalarida qo'llanilgan texnik-taktik harakatlari samaradorligi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadvalda

**YUqori malakali bokschilarning musobaqa faoliyati
ko'rsatkichlari taxlili.(n-20)**

Ko'rsatkichlar	Mamlakatimiz bokschilari		Rassiya va Kuba bokschilari	
	$\overline{X}$	σ	$\overline{X}$	σ
Jangda zarbalar soni	169,6	10,8	179,5	15,4
Y Akkali zarbalar	55,5	7,8	59,3	5,7
Zarbalar seriyasi	59,5	9,8	66,7	5,7
Aniq nishonga urilgan zarbalar soni	49,61	7,2	59,95	3,8
Qaytarilgan zarbalar soni	39,8	5,9	51,4	9,8
HSK	0,29	0,067	0,33	0,025
HSK	0,23	0,055	0,27	0,064

Jadvaldan shunday xulosa qilish mumkinki, mamlakatimiz bokschilari tamonidan qo'llanilgan zarbalarni umumiy soni $169,6 \pm 10,8$ tashkil etgan bo'lsa, hujum zaralarini samaradorligi koeffitsienti atiga $0,29 \pm 0,069$ tashkil etdi xalos.

Bu zarbalar Rossiya va Kubalik bokschilarida $179,5 \pm 15,4$ umumiy urilgan zarbalarni tashkil etadi, zarbalarning umumiy soni mamlakatimiz bokschilarnikida 9,9 ga ko'pligini ko'rishimiz mumkin. Hujumni samaradorligi koeffitsienti $0,33 \pm 0,025$ mamlakatimiz bokschilari ko'rsatkichlaridan sezilari darajada yuqoriligini ko'rishimiz mumkin.

Aniq nishonga urilgan zarbalarni o'rtacha ko'rsatkichi mamlakatimiz bokschilarida $49,61 \pm 7,2$ ni tashkil etsa, bu ko'rsatkichlar Rossiya va Kubalik bokschilarini ko'rsatkichlaridan 10,34 kamligini ko'rishimiz mumkin.

Qaytarilgan zarbalar soni mamlakatimiz bokschilarida $39,8 \pm 5,9$ tani tashkil etsa bu ko'rsatkichlar Rossiya va Kubalik bokschilarda $51,4 \pm 9,8$ ta yuqoriligini ko'rishimiz mumkin. Himoyani samaradorligi koeffitsienti mamlakatimiz bokschilari $0,23 \pm 0,055$ tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkichlar Rossiya va Kubalik bokschilarida $0,27 \pm 0,064$ tani sezilari darajada yuqoriligini ko'ramiz.

Yuqorida aniqlangan kamchiliklarga asoslangan xolda yuqori malakali bokschilarni musobaqa va hakamliklardagi o'zgarishlarni texnik-taktik harakatlar samaradorligini oshirishga qaratilgan va ilmiy jihatdan o'z isbotini o'quv rejaga asoslangan xolda bokschilarni o'quv-mashg'ulotlarini tashkil etilsa samarali natijalarni qo'lga kiritish mumkin.

XULOSALAR.

O'tkazilgan ilmiy-uslubiy adabiyotlar taxliliga ko'ra yuqori malakali bokschilarni to'rt yillikning eng nufizli musobaqalarida biri bo'lmish Olimpiyada va Osiyo o'yinlariga tayyorlashda eng muhim omillardan biri musobaqa oldi bosqichi tayyorgarligida o'quv-mashg'ulot va musobaqa yuklamalarini to'g'ri rejalashtirish ekanligi aniqlandi.

Mamlakatimiz bokschilarining Olimpiyada va Osiyo o'yinlari- da qo'llanilgan texnik-taktik harakatlardan shunday xulosa qilish mumkinki, mamlakatimiz bokschilari tamonidan qo'llanilgan zarbalarni umumiy soni $169,6 \pm 10,8$ tashkil etgan bo'lsa, hujumni samaradorligi koeffitsienti atiga $0,29 \pm 0,069$ tashkil etdi xalos.

Bu zarbalar Rossiya va Kubalik bokschilarida $179,5 \pm 15,4$ umumiy urilgan zarbalarni tashkil etadi, zarbalarning umumiy soni mamlakatimiz bokschilarnikida 9,9 ga ko'pligini ko'rishimiz mumkin. Hujumni samaradorligi koeffitsienti $0,33 \pm 0,025$ mamlakatimiz bokschilari ko'rsatkichlaridan sezilari darajada yuqoriligini ko'rishimiz mumkin.

Aniq nishonga urilgan zarbalarni o'rtacha ko'rsatkichi mamlakatimiz bokschilarida $49,61 \pm 7,2$ ni tashkil etsa, bu ko'rsatkichlar Rossiya va Kubalik bokschilarini ko'rsatkichlaridan 10,34 kamligini ko'rishimiz mumkin.

Qaytarilgan zarbalar soni mamlakatimiz bokschilarida $39,8 \pm 5,9$ tani tashkil etsa bu ko'rsatkichlar Rossiya va Kubalik bokschilarda $51,4 \pm 9,8$ ta yuqoriligini ko'rishimiz mumkin. Himoyani samaradorligi koeffitsienti mamlakatimiz bokschilari $0,23 \pm 0,055$ tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkichlar Rossiya va Kubalik bokschilarida $0,27 \pm 0,064$ tani sezilari darajada yuqoriligini ko'ramiz.

YUqorida keltirilgan ko'rsatkichlarni hisobga olgan xolda mamlakatimiz bokschilarini tayyorgarlik jarayoniga quyidagilarni taklif qilish mumkin:

- bokschilar tomonidan jangdagi zarbalarni umumiy sonini oshirishga qaratilgan usul va vositalar hajmini oshirish;
- yakkali va seriyali zarbalar sonini oshirishga qaratilgan o'quv-mashg'ulotlar hajmini oshirish;
- bokschilarni zarba aniqligini oshirishga qaratilgan mashg'ulot yuklamalarini oshirish;
- hujum va himoya harakatlari samaradorligi koeffitsienti oshirish.

Bundan tashqari mamlakatimiz terma jamoasi bokschilarini 2000 yildagi Olimpiyada va 1998 yil, 2002 yilda bo'lib o'tgan Osiyo o'yinlariga qatnashish uchun o'tkazilgan tayyorgarlik mashg'ulotlarini mazmun mohiyatiga yaqinlashtirish kerak.

Tadqiqotlar jarayonida olingan ma'lumotlarni hisobga olgan xolda yuqori malakali bokschilarni tayyorgarligini rejalashtirish samarali natijalarga erishishga asos bo'ladi.

AMALIY TAVSIYALAR

YUqori malakali bokschilarning musobaqa faoliyati talab qiladigan hujum va himoya harakat turlarining qo'llanilish hajmlarini oshirish va ularning samaradorligini oshirishda quyidagilarni xisobga olish yuqori natijalarga erishishga asos bo'ladi:

- texnik-taktik mahorat, sensomotor va fikrlash jarayonlarini takomillashtirish;
- bokschilarning jismoniy, funksional va irodaviy tayyorgarligi darajasini oshirish;
- asosiy musobaqalarga tayyorgarlikning (sport formasining) yuqori darajasiga erishish va ularda psixik jihatdan ishonchli qatnashishni yaxshilash.

Sportchining tayyorgarligi bir qator o'zaro bog'liq tarkiblardan (texnik, taktik, jismoniy va psixik tayyorgarlikdan) hosil bo'ladi, ular muvaffaqiyatli qatnashish uchun muhim ahamiyatga ega, va shuning uchun zamonaviy tayyorgarlik sharoitlarida yuqorida aytib o'tilgan vazifalar faqat kompleks holda ilmiy jihatdan isbotlangan reja asosida tashkil etsa eng nufuzli musobaqalarda yuqori natijalarga erishish mumkin.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР.

1. И.А. Каримов «Жисмоний тарбия ва спорт хусусидаги Ўзбекистон Республикаси Қонуни», Тошкент ш., 14 январ 1992 й.
2. И.А. Каримов “Алпомиш” достонининг 100-йиллигига бағишланган тантанали тадбирда сўзлаган нутқи. // Бизнинг олий мақсадимиз – Ватаннинг мустақиллиги ва гуллаб-яшнаши, халқнинг эркинлиги ва фаровонлигидир. 8-Т, Тошкент, 2000.- 77-82 б.
3. “Республика ўқув юртларида жисмоний тарбия фани ўқитилишини яхшилаш” Ўзбекистон Республикаси Олий ва Ўрта махсус таълим Вазирлигининг 1992 йил 26 июнда қабул қилган Қарори, №6-3.
4. Абзалов Р.А., Нигматуллина С. Изменение показателей насосной функции сердца у спортсменов и неспортсменов при выполнении мышечных нагрузок повышающейся мощности. Теория и практика физической культуры. 1999, №8, 24с.
5. Абзалов Р.А. Вазитов И.Х., Сафин Р.С, Кабыш э.Г. Показатели ударного объема крови в юношей, занимающихся физическими упражнениями динамического и статистического характера. Теория и практика физической культуры. 2002, №2, 13с.
6. Бальсевич В.К. Контуры новой стратегии подготовки спортсменов олимпийского класса // Теория и практика физической культуры. 2001, №4, 9-10с. развития скоростно-силовых качеств боксеров. Автореферат дисс.док.пед.наук. - Киев, 1981г.-20с.
7. Ванаев Г.В. Индивидуализация тренировочной нагрузки в процессе предсоревновательной подготовки боксеров высокого класса с учетом их личностных и психофизиологических особенностей. Автореферат дисс. канд.пед.наук. М., 1979. - с 24.
8. Годик М.А. Спортивная метрология. Учебное пособие для институтов физической культуры. М., Фис. 1988 г. - 192 с.
9. Градополов Г.В. Бокс 3-е издание. Исправление и дополнение. - М. ФиС, 1961 г.-332 с.

10. Дегтярев И.Н. Управление предсоревновательной подготовкой и последующим состоянием в видах единоборств, имеющих деление в весовые категории. Автореферат дисс.докт.пед.наук. М., 1987. - с 44.
11. Джероян Г.О., Худатов Н. Предсоревновательная подготовка боксеров. - М, ФиС, 1971 г.- 143 с.
12. Емешин К.Н., Николайчик А.И. Тест для отселекционной работоспособности самбистов // Спортивная борьба: ежегодник, 1981 г. - 55с.
13. Закиров Ш.Н. Определение готовности боксеров к соревнованиям.
14. Проблемы управления подготовкой боксеров высокой квалификации. - М., 1977 г. -14- 15с.
15. Затсиорский В.М. Спортивная метрология. - М., ФиС, 1982 г. - 256-266 с. Иванченко В.П., Лаптев А.В., Савин Г.И. Особенности подготовки высококвалифицированных боксеров к крупным боксерским турнирам. Брошюра. - М, РГАФК, 1995 г. - 26 с.
16. Кийизбаев М.С. Модификация физической подготовки боксеров-юношей 16-17 лет в зависимости от весовой категории: Автореферат дисс.канд.пед.наук. М., 1984.-с 19.
17. Латышенко В.В., Родионов А.В. Динамика психических состояний боксеров в турнире // Теория и практика физической культуры. № 11. 1971г.-11 с.
18. Матвеев Л.П. К теории построения спортивной тренировки // Теория и практика физической культуры. № 12. 1991г. - 11-12 с.
19. Матвеев Л.П. Общая теория спорта. - М., Воен. 1997. - 360 с.
20. Матвеев Л.П. Модельный селективный подход к построению спортивной подготовки // Теория и практика физической культуры. № 1. 28с, № 2. 28с.
21. Медицинские средства восстановления спортивной работоспособности. // Под.ред. Н.Д. Граевской. -М., 1983 г. - 107 с.

22. Мокеев Г.И., Горбунов В.К. Бурджонидзе В.Т. Тренировочные нагрузки боксера в годичном цикле. Методические рекомендации. Чита. 1987 г. - 30 с.
23. Набатникова М.Я. Развитие научных основ юношеского спорта. // Теория и практика физической культуры. № 11. 1983г. - 45-47 с.
24. Никифоров Ю.Б., Викторов И.Б. Построение и планирование тренировки в боксе.-М., Физкультура и спорт, 1978 г.-210 с.
25. Новиков А.А., Акопян А.О. Функциональная система управления подготовкой спортсменов в различных видах единоборств. // Теория и практика физической культуры. № 11. 1983г. - 20-22 с.
26. Филимонов В.И. Бокс. Педагогические основы обучения и совершенствования (Рекомендована федерацией бокса России в качестве учебника по боксу). Москва. ИНСАН, 2001. - 396 с.
27. Телюк С.П., Керимов Ф.А. Планирование тренировочного процесса квалифицированных борцов в соревновательном периоде. Методические рекомендации. - Т. УзГИФК, 1987 г. - 58 с.
28. Умаров Х.Ю. Планирование тренировочных и соревновательных нагрузок в годичном цикле подготовки прыгунов с шестом высокой квалификации: Автореферат дисс.канд.пед.наук. М., 1986. — с 23.
29. Филиппов С.С, Таймазов В.А., Квачадзе Д.И. Спортивная машина в боксе как объект информационного обеспечения. // Теория и практика физической культуры. № 1. 1999г. - 36 с.
30. Филин В.П. Теория и методика юношеского спорта. - М., Физкультура и спорт. 1987г.- 128 с.
31. Филимонов В.И. Специфика силовой подготовленности боксеров высокой квалификации в связи с особенностями их технико-тактического мастерства. Автореферат дисс.канд.пед.наук. М., 1978. - с 262.
32. Халмухамедов Р.д. Структура тренировочной нагрузки в годичном цикле подготовки боксеров высокой квалификации. - Т. Журнал «Педагогика таълим». 2003 г. № 2, - 17 с.

33. Халмухамедов Р.Д. Динамика работоспособности единоборцев на послесоревновательных этапах в связи с особенностями восстановления массы тела: Автореферат дисс.канд.пед.наук. М., ГСОЛИФК, 1990. - с 24.

34. Худадов Н.А. Психологическая подготовка боксера. - М., 1968 г. - 160 с.

35. Хусяйнов З.М. Машғулоти нокаутироюшгои удари боксерови баланди квалитатсии. - М., МЕИ, 1995 г. - 72 с.

36. Хуснутдинов О.П. О применение метода микроструктурного анализа в изучении соревновательной деятельности боксеров. // Тезис доклад Всесоюзной научно-практической конференции. Многолетняя психологическая подготовка высококвалитсированных спортсменов. - М., ВНИИФК, 19869 г. - 138-140 с.